


Chempionlar bilan uchrashuv


Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida mamlakatimiz miqyosida sport sohasida muvaffaqiyatli natijalar qayd etgan sportchilar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti bilan hamkorlikda tashkil etilgan davra suhbatida mazkur oliy ta'lim muassasasining «Milliy kurash turlari nazariyasi va uslubiyoti» hamda «Yakka kurash turlari» kafedralari qoshidagi ta'lim yo'nalishlari talabalari bo'lgan muaytay bo'yicha sport ustalari – Shahriyor Rashidov va Alisher Komiljonov hamda belbog'li kurash bo'yicha jahon va O'zbekiston chempioni Og'abek Amatbayev sportga kirib kelish tarixi, erishgan natijalari, bosib o'tgan mashaqqatli yo'li to'g'risida o'z taasurotlari bilan o'rtoqlashdi.

Uchrashuv davomida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

Bunday tadbirlardan maqsad sport va san'at vakillari o'rtasida do'stona aloqalarni yo'lga qo'yish, sportchilar uchun ijodiy, oliygohimiz talabalarimiz uchun esa sog'lom turmush tarziga oid qiziqish va ko'nikmalarini shakllantirish hisoblanadi.







Fransiyada madaniyat va san'at sohasi bo'yicha tahsil olishga oid seminar o'tkazildi

Bugun Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi Campus France agentligi vakili Sipriyan Lyorua tomonidan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining bitiruvchi talabalari uchun seminar o'tkazildi.

Seminarda Fransiya madaniyati va san'ati, sohaga oid tashkilotlar, tarixiy maskanlari to'g'risida ma'lumot berildi.

Qolaversa, Yevropa mamlakatidagi madaniyat va san'atga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari faoliyati, u yerda tahsil olish imkoniyatlari, grant dasturlari, universitetlarga o'qishga kirish uchun belgilangan talablar to'g'risida atroflicha ma'lumot berildi.

Davra suhbatida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollar yuzasidan tegishli ma'lumotlarga ega bo'ldi.

